

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARIDA BOLALARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISH

Zayniddinov Farhod Faxriddin O'g'li

Termiz davlat universitetining Pedagogika instituti, maktabgacha ta'lim yo'nalishi magistranti

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kelgusida maktab bilimini yaxshi o'zlashtirishi, maktabga moslashuvning yengil o'tishi, bola shaxsida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarning oldini olish, qiyinchiliklarni bartaraf etishni amalga oshirishda bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlariga jalb etilganligi, ta'limga qamralganligi alohida ahamiyatga egadir. Bu borada, ayniqsa, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tizimini rivojlantirish, bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga jalb etish, maktabga tayyorlash masalalari ta'lim sohasidagi davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri deb qaraldi. Mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash uchun, eng avvalo, qulay tashkiliyhuquqiy sharoitlar yaratildi. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining nutqini rivojlantirishga oid talablar qo'yilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning asosiy vazifalaridan biri ona tilining har bir yosh bosqichi uchun belgilangan normalari va qoidalarini o'zlashtirilishi hamda uning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishdan iboratdir. Qayd etish lozimki, bir xil yoshdagi bolalarning nutqiy darajasi birbiridan mutlaqo farq qilishi mumkin. 1152 Maktabgacha yoshda nutqni rivojlantirish (ona tilini egallash) o'z tabiatiga ko'ra ko'p qirrali jarayon hisoblanadi. U aqliy rivojlanish bilan uzviy bog'langan, chunki insonning rivojlangan tafakkuri – bu nutqiy, til, so'z-mantiqiy tafakkurdir. Nutqiy rivojlanish, tilni egallash va aqlni, bilishni rivojlantirish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tafakkurni rivojlantirish uchun tilning qanchalik muhim ahamiyatga egaligidan dalolat bermoqda. Bolaning til tizimini egallash borasidagi barcha yutuqlarini muloqotni ta'minlovchi mazmunli, keng yoyilgan fikr sifatida qaraladigan ravon nutq o'z ichiga oladi. U mazmunlilik, mantiqlilik va izchilligi bilan ajralib turadi. Ravon nutq bola til boyligini qanchalik o'zlashtirganligining ko'rsatkichi hisoblanadi, u bolaning aqlan, estetik, emotsional jihatdan rivojlanish darajasini aks ettiradi. Ma'lumki, maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini o'stirish mantiqan fikrlash va tafakkurini rivojlantirish faoliyatning har xil turlarida amalga oshiriladi: - tabiat ob'ektlari bilan tanishtirish mashg'ulotlarida; - badiiy asarlar bilan tanishtirish mashg'ulotlarida; - savod o'rgatishda; - o'yin faoliyatida; - ijtimoiy foydali mehnat jarayonida turli ishlarning bajarilishida.

Bola tomonidan nutqni o'zlashtirishga asosli yondashuv bilan kelishgan holda biz shunga e'tiborimizni qaratdikki, qo'llanma mualliflari tez-tez «yordam berish», «mashq qildirish» va boshqa iboralarni qo'llaydilar-u, biroq qay tarzda yordam berish, mashq qildirish mumkinligiga kam e'tibor qaratadilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bola har tomonlama maktab ta'limiga tayyorlanadi. Ular orasida bola nutqini rivojlantirish eng asosiylaridan hisoblanadi. Mashg'ulotlar jarayonida mantiqan fikrlash va tafakkurini rivojlantirish orqali bolalarni maktabga tayyorlash. Ularning so'z boyligi oshishi, ravon gapirishi va o'z fikrini to'liq ifoda etib, aytib bera olishi juda muhim. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkaziladigan mashg'ulotlar orasida nutq o'stirish mashg'uloti eng asosiy mashg'ulotlardan hisoblanadi. Bu mashg'ulotlarda har bir guruh bolalarining yosh xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda mantiqan fikrlash va tafakkurini rivojlantirishga davlat talablari qo'yilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlar orqali bolalar nutqini o'stirish mantiqiy fikrlash va tafakkurini rivojlantirish ular faoliyatining har xil turlarida: badiiy adabiyot, atrof-muhitda bo'layotgan hodisalar bilan tanishtirishga oid mashg'ulotlarda, shuningdek ulardan tashqari vaqtlarda – o'yin va mehnat faoliyatda, kundalik hayotda amalga oshiriladi. Biroq, bunda ona tiliga o'rgatish va nutqni rivojlantirishga doir mashg'ulot asosiy mashg'ulot hisoblanib, unda tarbiyachi quyidagi vazifalarni amalga oshirishi lozim: - bolalarning o'z tengdoshlari shaxsiga va faoliyatiga qiziqishlarini qo'llabquvvatlash, birgalikdagi o'yinlar va mashg'ulotlarda ularning dialogik muloqotlari yo'lga qo'yilishiga ko'maklashish.

Turli muloqot vositalari – so'zli, imo-ishorali, pantomimali usullardan muayyan vaziyatni hisobga olib, tabaqalashtirilgan holda foydalanish; - nutqni fonematik qabul qilish, nutqning talaffuz va ohang tomonlarini rivojlantirish.

Artikulyatsion va akustik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan tovushlarni (qattiq va yumshoq, bo'g'iq va jarangdor, sizg'iruvchi va shipillovchi, sonor tovushlar) tinglaganda aniqlay olishni va to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatish.

So'zlarda va tez aytishlarda, qisqa she'rlarda tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni mashq qildirish. Talaffuzning ohangi, sur'ati va past-balandligini ixtiyoriy ravishda boshqarishni o'rgatish;

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

- so'zning ma'no haqidagi tasavvurni takomillashtirish, bolalar nutqini antonimlar, sinonimlar, ko'p ma'noli so'zlar, umumlashtiruvchi nomlar bilan boyitish, obrazli so'zlarni, taqqoslashlarni, aniq fe'llarni faollashtirish;

- so'z o'zgartirishning qiyin holatlarini o'zlashtirishga yordam berish (bosh kelishik va qaratqich kelishigi, otlarning ko'plik soni, turlanmaydigan otlar, buyruq mayli va fe'llar shakllari, fe'llarning tugallangan va tugallanmagan turlarini hosil qilish).

Gap tuzilmasini takomillashtirish, nutqda turli gap tuzilmalaridan – oddiy, murakkab gaplardan va begonalar nutqidan faol foydalanishga ko'maklashish. Grammatik vositalarni o'zlashtirish jarayonida nutqqa nisbatan tanqidiy munosabatni qo'llab-quvvatlash, to'g'ri so'zlashga intilishi.

Xulosa qilib aytganda, bola nutqini rivojlantirish jarayonini boshqaruvchi pedagog bu jarayonning turli yosh bosqichlaridagi qonuniyatlari, mexanizmlari, o'ziga xosliklarini bilishi, nutqiy rivojlantirishning o'ziga xosliklarini ko'ra olishi va bolaning individualligini hisobga olgan holda, uning nutqiga ta'sir ko'rsatishning eng samarali yo'llarini tanlashi lozim.

Adabiyotlar

1. Бердиева, Ханифа Мейлиевна Изучение научных основ механизации и автоматизации управления сельским хозяйством в курсе физики средней школы (на материале сельских школ Узбекистана). <https://nauka-pedagogika.com/pedagogika-13-00-02/dissertatsiya-izuchenie-nauchnyh-osnov-mehanizatsii-i-avtomatizatsii-upravleniya-selskim-hozyaystvom-v-kurse-fiziki-sredney-shkoly-na-m>

2. Бердиева Х.М., Шаманов М.Х., Абдурахмонова Р.Х., Гулбоева Б.Н. Технология и методика обучения учащихся общеобразовательных школ // Студенческий вестник: электрон. научн. журн. 2018. № 29(49). URL: <https://internauka.org/journal/stud/herald/49> (дата обращения: 10.03.2022).

3. Бердиева Х.М. Развитие профессиональных коммуникативных навыков педагогов в сфере образования. <https://s.siteapi.org/d955411c180ee78/docs/khhp4bee6u8g8goowcsg0gcg8os0kw>

4. Berdiyeva Muhabbat Meyliyevna Pedagogical support and development of the intellectual opportunities of children in preschool education <http://www.idpublications.org/wp-content/uploads/2019/12/abstract-pedagogical-support-and-development-of-the-intellectual-opportunities-of-children.pdf>

5. Meyliyevna Berdiyeva Muhabbat. The quality of preschool education at the present stage. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Year : 2021, Volume : 11, Issue : 10. [10.5958/2249-7137.2021.02402.2](https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=10&article=351#aff001)
<https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=10&article=351#aff001>

6. Meyliyevna Berdiyeva Muhabbat Tasks for preschool educators. [10.5958/2249-877X.2021.00078.3.](https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:sajmmr&volume=11&issue=10&article=023)
<https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:sajmmr&volume=11&issue=10&article=023>

7. Berdiyeva M.M. Formation of intellectual culture of a preschooler. <https://scientific-conference.com/images/PDF/2019/55/International-scientific-review-LIV-ISBN.pdf>

8. Бердиева Ханифа Мейлиевна. Мактаб ўқувчиларини касб-хунарга ўргатиш йўллари. <https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2020/05/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20%E2%84%9626%20%282%29%20%28web%29%20%283%29.pdf>

9. Бердиева Ханифа Мейлиевна. Таълим тизимини модернизациялашдаги муаммолар ва уларни бартараф этиш усуллари. <https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2020/05/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20%E2%84%9626%20%282%29%20%28web%29%20%283%29.pdf>

10. Бердиева Мухабат Мейлиевна. Педагогик қўллаб-қувватлаш асосида илк ёшдаги болаларни интеллектуал ривожлантириш. “Профессионал таълим тизимида ислохотлар: малака ошириш таълим турида инновацион ғоялар” мавзусидаги Халқаро илмий-амалий конференция. <https://staff.tiame.uz/storage/users/546/articles/iMJfaUDoPQYZqSxUhG7olj9aZ9XSLff9CSErkMxL.pdf>

11. Usmanova Saodat Erkinovna. (2021). Formation of spiritual and moral qualities of preschoolers on the basis of public education. Middle European Scientific Bulletin, 11. <https://doi.org/10.47494/mesb.2021.11.421>

12. Усманова Саодат Эркиновна Возможности Использования Мультимедийных Компьютерных Программ В Развитии Детей Дошкольного Возраста. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=46438589>

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

13. Jumayeva malika aliyevna, & buriyev jamshid jumanazarovich. (2021). The role of activity in the upbringing and development of the child . International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 1(2), 126–129. Retrieved from <https://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss/article/view/40>

14. Jumayeva Malika Aliyevna. (2021). Independent musical activity in preschool organizations. Journal of Ethics and Diversity in International Communication, 1(1), 9–10. Retrieved from <https://openaccessjournals.eu/index.php/jedic/article/view/16>

15. Aliyevna, J. M. (2021). The Social Activity of the Educator with the Family. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 12, 401-403. Retrieved from <http://ejlss.indexedresearch.org/index.php/ejlss/article/view/338>

16. Lola Utasheva Shoturaevna. (2021). Social and pedagogical activities in preschool educational institutions. *JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 6(11), 412–415. Retrieved from <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/193>

17. Shoturayevna, U. L. (2021). Development of Creative Competence of Educators in Preschool Educational Institutions. *European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)*, 12, 395-397. Retrieved from <http://ejlss.indexedresearch.org/index.php/ejlss/article/view/336>

18. Radjabova G.M. The educational value of oral folk art for preschoolers // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

19. Berdieva M.M. Increasing the research activity of a pupil of a preschool organization // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

20. Berdieva Kh.M. Functions of the organization of advanced training of teachers in the field of education // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

21. Utasheva L.Sh. Introducing preschoolers to the world of fiction // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С. {см. сборник}.

22. Usmonova S.E. Plot construction as a means of developing the creative abilities of children // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

23. Muhammadiyeva F.T. Technology familiarization of preschoolers with various materials through cognitive research activities // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

Mamatmuminova M.G. Features of the use of animation in the development of creative abilities of preschoolers // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.